



MATERIAL LIABILITY OF AN EMPLOYEE TO THE EMPLOYER

Bahodir Mamasharifovich Hamrokulov

Professor of the Department of Civil Law and Private International Law

*Doctor of Legal Sciences, Professor, at the University of World Economy and Diplomacy
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: material liability, employee, employer, employment contract, full material liability, collective liability, labor disputes, labor law.

Received: 08.03.26

Accepted: 09.03.26

Published: 10.03.26

Abstract: This article analyzes the institution of an employee's material liability to the employer within the framework of the current labor legislation of the Republic of Uzbekistan. The article reveals the legal essence of the concept of material liability, identifies its types and the conditions for its application, and highlights the specific features of material legal relations arising between the parties to an employment contract. The study examines the theoretical foundations of the institution of an employee's material liability to the employer, substantiates the legal significance of individual and collective agreements on full material liability, and scientifically explains the mechanisms for reviewing and resolving labor disputes related to material liability. Based on current regulatory legal acts and scientific approaches, the author's conclusions are formulated.

XODIMNING ISH BERUVCHI OLDIDAGI MODDIY JAVOBGARLIGI

Bahodir Mamasharifovich Hamrokulov

Yuridik fanlari doktori, professor

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Fuqarolik huquqi va xalqaro xususiy huquq fanlari kafedrasi professori

Toshkent O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: moddiy javobgarlik, xodim, ish beruvchi, mehnat shartnomasi,

Annotatsiya: Mazkur maqolada xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarlik instituti O'zbekiston

to'liq moddiy javobgarlik, jamoaviy javobgarlik, mehnat nizolari, mehnat huquqi.

Respublikasida amaldagi mehnat qonunchiligi doirasida tahlil qilinadi. Maqolada moddiy javobgarlik tushunchasining huquqiy mazmunini ochib berilgan, uning turlari va qo'llanish shartlarini aniqlangan hamda mehnat shartnomasi taraflari o'rtasida vujudga keladigan moddiy-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos jihatlarini yoritilgan. Tadqiqotda xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligi institutining nazariy asoslari tahlil qilingan, yakka va jamoaviy to'liq moddiy javobgarlik shartnomalarining huquqiy ahamiyati, shuningdek, moddiy javobgarlik bilan bog'liq mehnat nizolarini ko'rib chiqish va hal etish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy yondashuvlar asosida mualliflik xulosalari shakllantirilgan.

МАТЕРИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ РАБОТНИКА ПЕРЕД РАБОТОДАТЕЛЕМ

Баходир Мамашарифович Хамрокулов

*Профессор кафедры гражданского права и международного частного права
доктор юридических наук, профессор Университета мировой экономики и дипломатии
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: материальная ответственность, работник, работодатель, трудовой договор, полная материальная ответственность, коллективная ответственность, трудовые споры, трудовое право.

Аннотация: В данной статье анализируется институт материальной ответственности работника перед работодателем в рамках действующего трудового законодательства Республики Узбекистан. В статье раскрывается правовое содержание понятия материальной ответственности, определяются её виды и условия применения, а также освещаются особенности материально-правовых отношений, возникающих между сторонами трудового договора. В исследовании проанализированы теоретические основы института материальной ответственности работника перед работодателем, научно обосновано правовое значение договоров о полной индивидуальной и коллективной

материальной ответственности, а также механизмы рассмотрения и разрешения трудовых споров, связанных с материальной ответственностью. На основе действующих нормативно-правовых актов и научных подходов сформулированы авторские выводы.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi, ayniqsa, mehnat shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlarini muvozanatli ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligi instituti mehnat huquqining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Moddiy javobgarlik orqali mehnat intizomini mustahkamlash, mulkiy manfaatlarni himoya qilish hamda mehnat munosabatlarida adolat tamoyilini qaror toptirishga xizmat qilinadi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida moddiy javobgarlikning mazmuni, chegaralari va qo'llanish shartlari aniq belgilab berilgani mazkur institutning normativ-huquqiy ahamiyatini oshiradi [1]. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida moddiy javobgarlik masalalariga alohida e'tibor qaratilib, xodim va ish beruvchining moddiy javobgarligi mustaqil huquqiy institut sifatida tizimli yondashuv asosida mustahkamlangan. Jumladan, moddiy javobgarlikning umumiy qoidalari, to'liq va cheklangan javobgarlik holatlari, shuningdek, zarar tushunchasining huquqiy talqini kodeks normalari orqali aniqlashtirilgan.

Bu esa amaliyotda yuzaga kelayotgan nizolarni huquqiy asosda hal etish imkoniyatini kengaytiradi. Ilmiy adabiyotlarda ham mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi masalasi keng tadqiq etilgan. Xususan, O.Abdullayeva va M.Muxammadiyeva mehnat shartnomasi doirasida moddiy javobgarlikning mazmuni va huquqiy mexanizmlarini tahlil qilib, ushbu institutning mehnat huquqidagi o'rnini asoslab bergan [3]. N.A.Yusupov esa yangi Mehnat kodeksi asosida moddiy javobgarlik institutining evolyutsiyasini ochib berib, uni yuridik javobgarlikning mustaqil turi sifatida tavsiflaydi. Ushbu ilmiy yondashuvlar moddiy javobgarlikni faqat kompensatsion vosita sifatida emas, balki mehnat munosabatlarida huquqiy barqarorlikni ta'minlovchi mexanizm sifatida talqin etish imkonini beradi. Amaliyotda moddiy javobgarlik masalalari ko'pincha mehnat nizolari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni ko'rib chiqish va hal etish jarayonida huquqiy aniqlik muhim ahamiyatga ega. I.O.Akramov, Y.Tursunov va Sh.M.Gaziev hamda R.X.Tashtemirovlarning tadqiqotlarida mehnat nizolarini hal etishning printsiplari, muddatlari va o'ziga xos jihatlari yoritilib, moddiy javobgarlik bilan bog'liq nizolarni samarali hal etish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan [7,8,9]. Shu jihatdan, xodimning ish

beruvchi oldidagi moddiy javobgarligini kompleks tarzda o'rganish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Moddiy javobgarlik institutining amaliy ahamiyati, ayniqsa, xodim bilan ish beruvchi o'rtasida tuziladigan to'liq yakka tartibdagi yoki jamoaviy moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar bilan bog'liq munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu shartnomalar orqali xodim zimmasiga muayyan moddiy boyliklarning saqlanishi va ulardan oqilona foydalanish majburiyati yuklanadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 12-iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan 3443-sonli Xodim bilan to'liq yakka tartibdagi moddiy javobgarlik yoki jamoaning (brigadaning) to'liq moddiy javobgarligi to'g'risida shartnoma tuzish bo'yicha Tavsiyalar mazkur shartnomalarni tuzish tartibini, ularning huquqiy chegaralarini hamda qo'llanish shartlarini aniqlashtirib berdi [2]. Bu esa amaliyotda shartnomaviy moddiy javobgarlikni qo'llashda yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, moddiy javobgarlikning shartnomaviy shakli Mehnat kodeksida belgilangan umumiy qoidalar bilan uzviy bog'liq holda qo'llanilishi lozim. Chunki xodim bilan tuziladigan to'liq moddiy javobgarlik shartnomasi mehnat huquqi tamoyillariga zid bo'lmasligi, xodimning huquqiy holatini asossiz ravishda og'irlashtirmasligi kerak. Bu masala N.A.Yusupovning ilmiy tadqiqotlarida alohida ta'kidlanib, moddiy javobgarlikni qo'llashda qonuniylik va adolatlilik tamoyillari ustuvor bo'lishi zarurligi asoslab berilgan [5]. Moddiy javobgarlik bilan bog'liq munosabatlarning yana bir muhim jihati ularning nizoli xarakter kasb etish ehtimolidir. Amaliyotda xodim tomonidan yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash, aybning mavjudligi yoki zarar bilan xatti-harakat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni isbotlash jarayonida mehnat nizolari vujudga keladi. I.O.Akramov, Y.Tursunov va Sh.M.Gaziev hamda R.X.Tashtemirovlarning tadqiqotlarida mehnat nizolarini ko'rib chiqish va hal etishning printsiplari hamda protsessual jihatlari yoritilib, moddiy javobgarlik masalalarida sud va nizolarni ko'rib chiquvchi organlarning roli ilmiy jihatdan asoslangan [7,8,9].

Shu bois, xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligi masalasini normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar uyg'unligida tahlil qilish, ushbu institutning nazariy mohiyati va amaliy qo'llanish mexanizmlarini ochib berish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligi masalasi O'zbekiston mehnat huquqida nafaqat normativ-huquqiy, balki keng ilmiy-amaliy tadqiqot obyekti sifatida shakllangan. Ushbu institutning huquqiy mohiyati va amaliy qo'llanishi mehnat shartnomasi taraflari o'rtasida yuzaga keladigan mulkiy munosabatlar bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida moddiy javobgarlikning tushunchasi, turlari, chegaralari

hamda undirish tartibi aniq belgilab berilgan bo'lib, bu normalar mehnat nizolarini hal etishda asosiy huquqiy tayanch vazifasini bajaradi.

Ilmiy adabiyotlarda moddiy javobgarlik instituti mehnat shartnomasi taraflarining o'zaro huquq va majburiyatlarini muvozanatlashtiruvchi mexanizm sifatida talqin etiladi. O.Abdullayeva va M.Muxammadiyeva mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligini huquqiy munosabatlarning mustaqil elementi sifatida ko'rib, zarar, ayb va sababiy bog'liqlik tushunchalarining ushbu institutdagi hal qiluvchi ahamiyatini asoslab beradi [3]. Ularning yondashuvida moddiy javobgarlik mehnat intizomini ta'minlash va mulkiy manfaatlarni himoya qilish vositasi sifatida baholanadi.

N.A.Yusupovning tadqiqotlarida moddiy javobgarlik yuridik javobgarlikning alohida turi sifatida chuqur tahlil qilinib, yangi Mehnat kodeksi asosida ushbu institutning normativ rivoji yoritilgan [4]. Olim to'liq va cheklangan moddiy javobgarlik institutlarining huquqiy chegaralari aniqlashtirilgani mehnat huquqi amaliyotida nizolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Moddiy javobgarlik masalalarining amaliy jihatlari B.M.Hamroqulovning "Mehnat nizolarini hal etish" darsligida tizimli ravishda yoritilgan [6]. Muallif moddiy javobgarlik bilan bog'liq mehnat nizolarini ko'rib chiqishning o'ziga xos jihatlari, zarar tushunchasining huquqiy talqinini, shuningdek, sud va nizolarni ko'rib chiquvchi organlar amaliyotini tahlil qiladi. Ushbu darslik moddiy javobgarlik institutini normativ normalar va sud amaliyoti uyg'unligida o'rganish imkonini beradi.

Shuningdek, I.O.Akramov, Y.Tursunov va Sh.M.Gaziev hamda R.X.Tashtemirovlarning tadqiqotlarida mehnat nizolarini ko'rib chiqish va hal etishning printsiplari hamda mexanizmlari yoritilib, moddiy javobgarlik bilan bog'liq nizolarni hal etishda protsessual jihatlarning ahamiyati asoslab berilgan [7,8,9]. Ushbu ilmiy yondashuvlar xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligini kompleks va tizimli tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligi instituti O'zbekiston mehnat huquqida normativ jihatdan aniq belgilangan bo'lsa-da, uning amaliy qo'llanishida bir qator murakkab masalalar mavjudligini ko'rsatdi. Mehnat kodeksi normalari, shuningdek, to'liq yakka tartibdagi va jamoaviy moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha tavsiyalar moddiy javobgarlikning huquqiy chegaralarini belgilab bergan. Biroq ilmiy manbalar tahlili ushbu institutni talqin etishda turli yondashuvlar mavjudligini aniqlash imkonini berdi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida moddiy javobgarlik institutining nazariy asoslari tizimlashtirildi va ularning mehnat nizolarini hal etish jarayonidagi ahamiyati aniqlashtirildi.


Xususan, ayrim tadqiqotchilar moddiy javobgarlikni mehnat shartnomasi taraflarining mulkiy manfaatlarini himoya qiluvchi mexanizm sifatida baholagan bo'lsa, boshqalari uni yuridik javobgarlikning mustaqil turi sifatida talqin qilgan. Ushbu yondashuvlar quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval.

Xodimning moddiy javobgarligi institutining nazariy asoslari

Tadqiqot yo'nalishi	Nazariy asos	Asosiy yondashuv mazmuni
<i>Mehnat shartnomasi doirasida moddiy javobgarlik</i>	O.Abdullayeva, M.Muxammadiyeva	Moddiy javobgarlik mehnat shartnomasi taraflarining mulkiy majburiyatlarini aniqlashtiruvchi huquqiy institut sifatida talqin qilinadi
<i>Yuridik javobgarlik tizimidagi o'rni</i>	N.A.Yusupov	Moddiy javobgarlik yuridik javobgarlikning mustaqil turi bo'lib, uning chegaralari va shartlari normativ asosda belgilangan
<i>Mehnat nizolari bilan bog'liqligi</i>	B.M.Hamroqulov	Moddiy javobgarlik bilan bog'liq nizolarni hal etishda sud va nizolarni ko'rib chiquvchi organlar amaliyoti muhim o'rin tutadi
<i>Protsessual jihatlar</i>	I.O.Akramov	Mehnat nizolarini ko'rib chiqish printsiplari va muddatlari moddiy javobgarlik masalalarida huquqiy aniqlikni ta'minlaydi
<i>Amaliy muammolar va yechimlar</i>	Y.Tursunov, Sh.M.Gaziev; R.X.Tashtemirov	Moddiy javobgarlik bilan bog'liq nizolarni hal etishda protsessual va tashkiliy muammolar mavjudligi asoslanadi

Jadvalda keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, moddiy javobgarlik instituti nafaqat normativ-huquqiy, balki ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan ham ko'p qirrali hodisa hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlangan yondashuvlar xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligini baholashda yagona konseptual asos ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, moddiy javobgarlik instituti nazariy jihatdan yetarlicha asoslangan bo'lsa-da, uning amaliy tatbiqida mehnat nizolarining yuzaga kelish ehtimoli yuqoriligicha qolmoqda. Xususan, zarar miqdorini aniqlash, ayb va sababiy bog'liqlikni isbotlash hamda to'liq moddiy javobgarlik shartnomalarini qo'llash jarayonida huquqni qo'llash amaliyotida turli talqinlar uchraydi. Ilmiy manbalar tahlili moddiy javobgarlikni qo'llashda normativ aniqlik bilan bir qatorda yagona nazariy yondashuvning yetishmasligini ko'rsatdi. Bu holat mehnat nizolarini hal etishda sud va nizolarni ko'rib chiquvchi organlar zimmasiga qo'shimcha mas'uliyat yuklaydi.



Olingan natijalar xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligi instituti mehnat huquqida murakkab va ko'p qirrali huquqiy hodisa ekanini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, normativ-huquqiy asoslar mavjud bo'lishiga qaramay, ilmiy yondashuvlarning rang-barangligi ushbu institutni amaliy qo'llashda turli talqinlarga sabab bo'lmoqda. Bu holat, ayniqsa, mehnat nizolarini ko'rib chiqishda yaqqol namoyon bo'ladi.

O.Abdullayeva va M.Muxammadiyeva tomonidan ilgari surilgan yondashuvda moddiy javobgarlik mehnat shartnomasi doirasida mulkiy majburiyatlarni aniqlashtiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Ushbu qarash moddiy javobgarlikning shartnomaviy tabiatini ochib bersa-da, uning yuridik javobgarlik tizimidagi o'rnini to'liq yoritib bermaydi. Aksincha, N.A.Yusupovning tadqiqotlari moddiy javobgarlikni yuridik javobgarlikning mustaqil turi sifatida asoslab, uning normativ chegaralarini aniq belgilash zarurligini ko'rsatadi.

B.M.Hamroqulovning darsligida esa moddiy javobgarlik masalalari mehnat nizolarini hal etish amaliyoti bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Ushbu yondashuv moddiy javobgarlik institutining real huquqiy hayotdagi ahamiyatini ochib beradi. Shu bilan birga, I.O.Akramov hamda Y.Tursunov va Sh.M.Gazievlarining ishlari moddiy javobgarlik bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqishda protsessual normalarning muhimligini asoslaydi. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, moddiy javobgarlik institutini samarali qo'llash uchun normativ aniqlik bilan bir qatorda, ilmiy yondashuvlarni uyg'unlashtirgan yagona konseptual asos zarur. Bu esa mehnat nizolarini hal etishda huquqni qo'llash amaliyotining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy tadqiqotda xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligi instituti O'zbekiston Respublikasi mehnat huquqi doirasida normativ-huquqiy, ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari moddiy javobgarlik mehnat shartnomasi taraflari o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim huquqiy mexanizm ekanini tasdiqladi. Mehnat kodeksi normalari moddiy javobgarlikning tushunchasi, turlari va chegaralarini aniq belgilab bergan bo'lsa-da, ilmiy adabiyotlar ushbu institutni talqin etishda turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi.

O'tkazilgan tahlil shuni aniqladiki, moddiy javobgarlik bir tomondan mehnat intizomini mustahkamlash va ish beruvchining mulkiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan xodim huquqlarining asossiz cheklanishiga yo'l qo'ymaslikni talab etadi. Ilmiy manbalarda ilgari surilgan yondashuvlar, xususan, moddiy javobgarlikni yuridik javobgarlikning mustaqil turi sifatida baholash va uni mehnat nizolarini hal etish amaliyoti bilan bog'lab o'rganish zarurligi asoslab berildi.

Xulosa qilib aytganda, xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligi institutini samarali qo'llash normativ aniqlik, yagona nazariy yondashuv va sud-amaliy tajribaning uyg'unlashuvini talab etadi. Mazkur tadqiqot natijalari mehnat nizolarini hal etish amaliyotini takomillashtirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2023-yil 30-aprel. – URL: <https://lex.uz/docs/6257288>
2. O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyrug'i. "Xodim bilan to'liq yakka tartibdagi moddiy javobgarlik yoki jamoaning (brigadaning) to'liq moddiy javobgarligi to'g'risida shartnoma tuzish bo'yicha tavsiyalarni tasdiqlash haqida". – 2023-yil 12-iyun, ro'yxat raqami 3443. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6492276>
3. Abdullayeva O., Muxammadiyeva M. Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi // *Modern Science and Research*. – 2024. – Jild 3, №11. – B. 8–13. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48466>
4. Yusupov N.A. O'zbekiston Respublikasi yangi Mehnat kodeksi bo'yicha moddiy javobgarlik masalalari // *Jamiyat va innovatsiyalar*. – 2023. – Jild 4, №1 (maxsus son). – B. 196–202. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol4-iss1-pp196-202
5. Yusupov N.A. Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi yuridik javobgarlik turi sifatida // *Jamiyat va innovatsiyalar*. – 2022. – Jild 3, №6 (maxsus son). – B. 329–335. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol3-iss6/S-pp329-335.

6. Hamroqulov B.M. Mehnat nizolarini hal etish. – Darslik. – Toshkent: JIDU nashriyoti, 2024. – 294 b.
7. Akramov I.O. Mehnat nizolarini ko‘rib chiqish va hal etishning printsiplari va muddatlari // Huquqiy tadqiqotlar (elektron resurs). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mehnat-nizolarini-korib-chiqish-va-hal-etishning-printsiplari-va-muddatlari>
8. Tursunov Y., Gaziev Sh.M. Mehnat nizolari va ularni hal etishning huquqiy muammolari. – Toshkent – URL: <https://unilibrary.uz/literature/91469>
9. Tashtemirov R.X. Mehnat nizolarini hal qilishning o‘ziga xos jihatlari // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – URL: <https://science-technology.uz/index.php/conference/article/view/625>.